

**Baxrom XAYDAROV**

*O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali*

## **TA'LIM TIZIMIDA BYUDJET MABLAG'LARINING MAQSADLI SARFLANISHI NAZORATI**

**Annotatsiya:** Mazkur ta'lim xizmatlari ko'rsatishda budjet mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy nazoratni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan. Ta'lim tizimida moliyaviy mablag'larning maqsadli sarflanishi, ta'lim xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonida moliyaviy mexanizmlar shakllanishi bilan tizimda budjet mablag'laridan samarali foydalanish jarayonini nazorat qilishning o'ziga xos farqli xususiyatlari o'rganilgan va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim xizmatlari, budjet mablag'lari, moliyaviy nazorat, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, ta'lim sifati.

## **CONTROL OF TARGETED SPENDING OF BUDGET FUNDS IN THE EDUCATION SYSTEM**

**Abstract:** The theoretical and practical aspects of the effective use of budget funds and financial control in the provision of educational services have been studied. Targeted spending of financial funds in the educational system, the formation of financial mechanisms in the process of implementing educational services, and the unique features of controlling the process of effective use of budget funds in the system were studied and practical recommendations were offered.

**Key words:** educational services, budget funds, financial control, organizational and economic mechanisms, quality of education.

### **Kirish**

Keyingi yillarda ta'lim xizmatlari bozorini istiqbolli soha sifatida tez sur'atlar bilan jadal rivojlantirishda mazkur sohasidagi integratsiyalashuv jarayoni sharoitida milliy manfatlarni ro'yobga chiqarish, ta'lim menejmentini sifat o'zgarishlariga monand ravishda samarali shakl va vositalar negizida tashkil qilish, bilim oluvchilarga qulay shart-sharoit yaratgan holda mobillik darajasini oshirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi nafaqat ta'lim tizimining sifat, samaradorligi, ilm-fan, ishlab chiqarish, institutsional sharoitlar va ta'lim tizimida budjet mablag'laridan samarali foydalanish, moliyaviy nazoratni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilish, takliflar ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltiradi va bu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Davlat budjetini moliyalashtirishda turli usullardan foydalanib mablag'larni to'g'ri taqsimlashni amalga oshirishda budjet xarajatlarini maqsadli yo'naltirish va ulardan foydalanish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlardan ma'lumki, davlat budjeti davlatning zimmasidagi vazifalarni bajarilishi uchun moliyaviy ta'minlash vositasi sifatida aks etib kelgan. Bu esa, davlat budjetidan moliyalashtirish usulining qanday bo'lishidan qat'iy nazar davlatning vazifalari budjetdan moliyalashtirilishi doimiy mavjud bo'lishini anglatadi.

Bu borada "O'zbekiston — 2030" strategiyasida "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" uchun maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash, bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlar bilan to'liq qamrab olish, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish, 100 foiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiena infratuzilmasi bilan ta'minlash hamda pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish, ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni to'liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish va boshqa bir qator sohaga tegishli vazifalar belgilangan [1].

### **Adabiyotlar sharhi**

Shu o'rinda biz ta'lim xizmatlari ko'rsatish va unda moliyaviy mablag'larning maqsadli sarflanishi bo'yicha olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy yondoshuvlarni ko'rib chiqamiz. O'zbekistonlik olimlardan I.Alimov "har bir mamlakatda davlat budjeti tuzilmasi va budjet tizimi mavjud bo'lib, budjet tuzilmasi mazkur davlatning siyosiy-ma'muriy tuzilmasiga asosan shakllantiriladi. Davlat budjeti tuzilmasi o'z mohiyatiga ko'ra, davlat budjetini tuzish tamoyillari, uni tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibi, budjet daromadlarini shakllantirish, uning xarajatlarini amalga oshirish tamoyillarini tashkil etishni ifodalaydi" deb ta'kidlab o'tadi [2,8].

Iqtisodchi olim D.Nabiyevning fikricha "O'zbekiston milliy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar, tarkibiy-tuzilmaviy o'zgarishlar, jahon hamjamiyatmiga kirish va yangi ishlab chiqarish kuchlarini yaratish, yangilash va qayta qurish kabi yumushlar katta hajmdagi moliyaviy mablag'larni jalb qilishni taqazo etadi" [3,28].

Ta'lim xizmatlar bozoridagi iste'molchilar talabini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar orasida moliyaviy mablag'lar va ta'lim xizmatlari alohida o'rin egallab "Ushbu omillar ta'lim xizmatlarining narxi, iste'molchilarning daromadlari, ta'lim muassasasining imidji, uning mulk shakli, akkreditatsion mavqei, ta'limni individuallashtirish darajasi kabilarni o'z ichiga oladi" [4,358].

Ta'lim tizimida moliyaviy mablag'larning maqsadli sarflanishida raqami iqtisodiyot alohida o'rin egallab "Raqamli iqtisod, noyob funksiyaning ayrim xususiyatlarining mavjudligi sababli klassik iqtisodga xos bo'lgan cheklovlarni yengishga imkon beradi:

1. Bir nechta odamlar moddiy mahsulotlardan foydalana olmaydilar, chunki raqamli mahsulotlarning bunday to'siqlari yo'q: nusxa ko'chirish va cheksiz odamlar doirasiga taqsimlanishi mumkin.

2. Materiallardan foydalanish paytida foydalanish taqiqlanadi. Raqamli mahsulotlar asl xususiyatlarini yo'qotmaydi, shuningdek, bu xususiyatlar birgalikda ishlash yoki almashinuv jarayonida yaxshilanishi mumkin.

3. Axborot-kommunikatsiya maydonchalari odatiy savdo binolarida mavjud bo'lgan maydonlarning hajmiga cheklovlar va shu bilan birga bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatadigan mijozlarning soni va miqdori jihatidan cheklanishlarini oldini oladi" [5,4].

### **Tadqiqot metodologiyasi**


Tadqiqot jarayonida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi. Bu borada O'zbekiston Respublikaning Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari ham o'rganildi va muammoning kompleks o'rganish uchun moliya, maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi faoliyatiga doir ma'lumotlardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Budjet mablag'lari sarflanishi takomillashtirishni rejalashtirish usulining bosh omili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Mazkur hujjatga ko'ra, budjet tashkilotlari moliyalashtirilishi smeta xarajatlari asosida to'rt guruh (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ish haqiga qo'shimchalar, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlar)ga ajratilgan holda amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu metodning 2000-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilishi har qanday budjet xarajat yo'nalishlari qat'iy belgilanishini o'zida aks ettiradi.

Ta'lim xizmatlari bozorining konyunkturasiga muvofiq muayyan vaqt mobaynida ta'lim xizmatlarini sotish va xarid qilish jarayonida mehnat va ta'lim

xizmatlari bozorida yuzaga keladigan shart-sharoitlar uzluksiz o'zgarib turadi. Shunga ko'ra, ta'lim xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonida moliyaviy mexanizmlar shakllanishi bilan o'zaro bog'liqlik sxemasini quyidagi ko'rinishda ilgari surildi (1-rasm).



**1-rasm. Ta'lim xizmatlari va moliyaviy mexanizmlarning o'zaro bog'liqligi<sup>1</sup>**

Ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy va moliyaviy mustaqilligi sharoiti xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, ta'lim xizmatlarini isloh qilish, bitiruvchilar raqobatbardoshligini oshirishda sifatni ta'minlash ko'p jihatdan davlat budjeti mablag'larining maqsadli sarflanishini tadqiq qilish yangi mazmun bilan to'ldirish zaruriyati bilan bog'liq.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini 46-maqсадida: oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish uchun kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini oshirish, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish, 2026-yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish hamda davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular

<sup>1</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish belgilangan [6].

Bundan tashqari ta'lim xizmatlari ko'rsatishda moliyaviy mablag'lardan maqsadli foydalanish orqali ta'lim tizimida "xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish" kabi ustuvor vazifalarning qo'yilishi OTM boshqaruv tizimini shakllantirish va to'xtovsiz takomillashtirishning nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda"[7].

### **Xulosa va takliflar**

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib ta'kidlash lozimki, ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat moliya nazoratini o'tkazishda har bir hududdagi iqtisodiy holat va moliyaviy imkoniyatlar e'tiborga olinishi lozim. Shuningdek, mazkur tizimda budjet mablag'laridan samarali foydalanish jarayonini nazorat qilishda joriy qonunchilikka va normativ xujjatlarga qat'iy amal qilgan holda ish olib borish lozim. Shuning uchun ta'lim xizmatlari ko'rsatishda davlat moliya nazoratini o'tkazishning ilmiy asoslangan usullariga aniqlik kiritish kerak, iqtisodiyotning yangi taraqqiyot bosqichida uning rivojlanish konsepsiyasini takomillashtirish lozim. Ta'lim tizimida budjet mablag'laridan samarali foydalanish masalalari davlat moliya nazoratiga yuklatilgan bo'lsada, uning tashkiliy, metodologik asoslarini takomillashtirish kerak.

Bu vazifalarning mohiyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston yoshlari forumida yoshlar bilan uchrashgan chog'ida alohida ta'kidlaganidek, "Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz" [7].

Bizningcha ta'lim xizmatlari ko'rsatishda moliyaviy nazoratni olib borishda har bir hududning ham iqtisodiy ham moliyaviy imkoniyatlari alohida tadqiq etilishi kerak. Bunda budjet mablag'laridan samarali foydalanish jarayonini nazorat qilishda qonunchilik, normativ huquqiy xujjatlarga amal qilgan holda tashkil qilinishi kerak, ta'lim tizimida davlat moliya nazoratini o'tkazishning ilmiy asoslangan usullaridan foydalanishni taklif qilamiz.

Shuningdek, ta'lim xizmatlarida moliyaviy xizmat va buxgalteriya sohasiga raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini muntazam joriy etish, ta'lim muassasalari uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni xarid qilish va ulardan samarali hisob-kitob tizimini

shaffofligini ta'minlash, ta'lim tizimida budjet mablag'laridan samarali foydalanish tizimi ustidan raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, bo'sh ish o'rinlarini ijtimoiy tarmoqlarda va mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, ta'lim tizimi xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish, noqonuniy mablag' o'zlashtirish holatlarining oldini olishda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/098)
2. Alimov I. Budjet tizimi: o'ziga xos xususiyatlar // Biznes-Ekspert jurnali. Toshkent, 2017 y. - №7. B. 8.
3. Nabiev D.H. Ta'lim sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. I.f.n. dissertatsiyasi. – T.: 2005 y. B. 28.
4. Лукашенко М.А. Высшее учебное заведение на рынке образовательных услуг: актуальные проблемы управления. - М.: Market DS, 2003. - 358 s.
5. Umarov O. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali 2018 yil. № 3, 4- bet. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev. "Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi". Xalq so'zi. 2020-yil 26-dekabr. № 273 (7775).
8. Umarova X. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning konseptual asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" № 5, 2021-yil <http://iqtisodiyot.tsue.uz>